

ELEKTRON TO'LOV TIZIMINING TARIXI VA O'ZBEKISTON HUDUDIDA RIVOJLANISH BOSQICHI

Rahimova X.U.

Ilmiy rahbar

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Fayziyeva Muxlisa Bahtiyarovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi Magistri.

Annotatsiya: Tezisdagi elektron to'lov tizimining tarixi va O'zbekiston Respublikasida rivojlanish bosqichi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: To'lov tizimi, elektron to'lovlar, naqat pulsiz hisob-kitoblar, plastik kartalar.

Аннотация: В диссертации рассматривается история развития системы электронных платежей и этапы её развития в Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Платежная система, электронные платежи, безналичный расчёт, пластиковые карты.

Abstract: The thesis discusses the history of the electronic payment system and the stage of development in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Payment system, electronic payments, cashless payments, plastic cards.

Kirish: To'lov tizimi – bu moliyaviy sheriklar: banklar, muassasalar, do'konlar va boshqalar o'rtasidagi bitimlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimidir. Keng ma'noda, bu haridor va sotuvchi o'rtasidagi to'lovlarni amalga oshirishga xizmat kiluvchi vositadir. To'lov tizimining iqtisodiyotdagi funksiyalari juda keng, aqar bank kartalarni olib ko'radigan bo'lsak, uning yordamida pul mablag'larining barqaror aylanishidan iboratdir. Plastik karta bilan to'lovni amalga oshirayotganda, maxsus terminal xaridorning pul mablag'larini o'z bankiga o'tkazish to'g'risida so'rov yuboradi va u yerdan kerakli miqdorni sotuvchining hisobiga o'tkazadi. Barcha hisob-kitoblar real vaqt rejimida amalga oshiriladi va 10 soniyadan oshmaydi. Davlat ichida, kredit muassasasi ichida va davlatlar o'rtasidagi pul muomalasini



boshqaruvchi ko'plab to'lov tizimlari mavjud. Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun electron to'lov tizimlari ham mavjud.

Elektron to'lov tizimi 1871 yil, tug'ilgan yili deb hisoblash mumkin. Aynan o'sha paytda taniqli Western Union kompaniyasi dunyoda birinchi electron pul o'tkazmasini amalga oshirdi. Albatta, uni electron deb atashning iloji yoq, chunki u telegraf xabarlarini orqali amalga oshirdi. Shundan beri, Western Union o'z ixtirosidan muvaffaqiyatli foydalanmoqda. Ammo nafaqat ushbu kompaniya pul aylanmasining ushbu turini qabul qildi, balki 1980 yilda Gollandiya kompaniyasi modernizatsiya qilingan tizimdan foydalandi, uning maqsadi ishonchli va tezkor to'lov tizimini yaratish edi. Bunday ishonchlilikka qarz majburiyatlarini bajaruvchi kompaniya erishdi. Ushbu kompaniya Cash deb nomlangan, uning asoschisi Western Union tizimini modernizatsiya qilgan Gollandiyalik tahlilchi Devid Chaumedi edi. Elektron to'lov tizimlarida birinchi va eng qadimgi hisoblangan ushbu kompaniyalardan biri E-Gold edi. Elektron pul ishlarida yurishni boshlaganida, u baland ovoz bilan va muvaffaqiyatli ravishda bankrotlikka uchradi va uning rahbariyati firibgarlikda ayiblangan edi.

1998 yilda electron to'lov tizimlari Rossiyada birinchi marta paydo bo'lgan. Rossiyada EPTni naqd pul bilan taqdim etadi. Ushbu electron tizim Rossiyaning uchta kompaniyasi: Tavricheskiy Bank, Alkor kompaniyasi va Aerokosmik jihozlar korporatsiyasining qo'shma loyihasi sifatida boshlangan. Allaqachon electron to'lov tizimlari bozorida ustun bo'lgan mashhur WebMoney paydo bo'lgan. EPT rivojlanishi uchun juda muhim yil bo'ldi, chunki bu yil RUPay tizimini yaratish to'g'risida shartnoma imzolandi. Muhimi shundaki, shartnoma Rossiya va Ukraina dasturchilari o'rtasida tuzilgan. Bugungi kunda electron to'lov tizimlarini rivojlantirish uchun asosiy vosita aloqa sohasini rivojlantirishdan iboratdir: Internet texnologiyalari, mobil aloqa xizmatlari va bank sohasini rivojlantirish hisoblanadi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatimiz miqyosida electron to'lov tizimlari (ETT) birinchi bor bank tizimiga joriy etish ishlab chiqildi va uni joriy etish 1994 yil 18 martdagi Vazirlar Mahkamasining 146-sonli "Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshirila boshlagandi. Bank sohasida electron to'lov tizimi –bu qog'ozsiz texnologiyaga va Markaziy bankning electron pochasi vositalari bilan ma'lumotlarni uzatishga va qabul qilishga asoslangan umumdavlat to'lov tizimidir. Respublikamiz tizimidagi tijorat banklariga bu tizimning joriy etishi banklararo to'lovlarning o'tishini tezlashtirdi va bank faoliyatini to'liq avtomatlashtirishga katta imkoniyatlar yaratdi.



O'zbekiston Respublikasida eng samarali va jahon talablari darajasida deb hisoblangan Respublika to'lov tizimining rivojlanishi to'rt bosqichga bo'lingan edi.

Birinchi bosqich

Birinchi bosqich 1991-yildan 1995-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Shu davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 146-sonli "Bank tizimini takomillashtirish, pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek Mustaqillikning uch yilligi sharafiga electron to'lovlar vaqtinchalik Nizomi yaratildi.

Ikkinchi bosqich

Ikkinchi bosqichiga 1995-1998 yillarni o'z ichiga oladi. 1995 yil aprel oyida Markaziy bank Jahon banki mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi banklararo to'lov tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan xalqaro tanlov tender e'lon qildi. Markaziy bankda tashkil etilgan electron to'lov tizimini yaratish bo'yicha tuzilgan ishchi guruhi electron to'lov tizimi texnologiyasini yaratdilar. Eski tizim 1995-yil, 19-avgustdan boshlab yangi texnologiya bilan almashtirila boshlandi. Bu paytga kelib Markaziy bank tizimida hisob-kitob markazlari tashkil etildi va tijorat banklariga electron to'lov bo'yicha xizmat ko'rsatila boshlandi. Yangi texnologiyaga o'tila borish sababi yilning oxirigacha respublikada 2 tizim: electron pochta va electron to'lov tizimlari ishlab turdi. Yil oxiriga kelib esa barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob-kitob markazlari, kliring markazlari electron to'lov tizimiga qo'shildi.

Uchinchi bosqich

1998-yil O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimiga o'tishda uchinchi bosqich yili bo'ldi. Markaziy bank bilan Jahon banki o'rtasida 1998-yil dekabr oyida "Respublika moliya sohasini rivojlantirish" uchun zayom ajratish to'g'risida shartnoma imzolandi.

To'rtinchi bosqich

To'rtinchi bosqich 2002-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davr mobaynida davom etdi. 2002-yilda to'lovlarni real vaqtda o'tishini ta'minlash va tijorat banklariga yagona vakillik hisob varag'i orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha texnologiya tanlanib, ushbu bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqildi va banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisob varag'i orqali otkazish hamda banklarda axborotlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha dastur yaratildi. 2004-yili 24-sentyabrda qabul qilingan



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qaror bilan ushbu tizimni kengaytirish borasidagi ilk reja ko'rsatkichlari, shuningdek to'lovlarni plastik kartochkalar orqali qabul qilish terminallari bilan jihozlanadigan ob'ektlar ro'yhati tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda, mazkur qarorga muvofiq mamlakatimizda Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi. Mazkur qarorga muvofiq, barcha tijorat banklari plastic kartochkalar tizimida ish olib borishiga zamin yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27- iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika "Elektron hukumat" tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur Kliring tizimi amaliyotga tadbir etildi. Shu bilan birga, "Uzkart" banklararo chakana to'lov tizimi faoliyatini tartibga solish va uning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, Markaziy bank huzuridagi Axborotlashtirish Bosh markazida "Banklararo universal netting axborot tizimi" dasturiy majmuasi ishga tushirilishi munosabati bilan "Uzkart" tizimida hisob kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining Banklararo hisob-kitoblar markaziga o'tkaziladi. 2015-yildan boshlab to'rtinchi bosqichning yangi davri boshlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3945-sonli Qaroriga asosan Milliy banklararo protsessing markazi 2018-yilning IV-choragida tashkil etildi va "Humo" to'lov tizimi 2019-yilning I-choragidan boshlab ishga tushirildi. To'lov tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar bilan bir qatorda, uning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu borada xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini, xalqaro me'yor va qoidalarni chuqur o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari markazi to'g'risida"gi Qonuni ishlab chiqildi va 2019-yil 1-noyabrda tasdiqlandi. Yakuniy xulosa sifatida aytishimiz mumkin, elektron to'lov tizimlar bozor iqtisodiyotining qon tomiriga aylangan va uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish va samaradorligini oshirish nafaqat O'zbekiston iqtisodiyoti uchun balkim dunyo iqtisodiyoti uchun ham muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Shu bois elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishda me'yoriy, texnik, iqtisodi-ijtimoiy asoslarini mustahkamlash zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019-yildagi O'RQ-578-son. — LEX.UZ – Ўзбекистон қонунчилиги.
2. "Payment Systems: Design, Governance and Oversight", edited by Bruce J. Summers, Central Banking Publications Ltd, London, 2012, p.3
3. Schueffel, Patrick (2017). The Concise Fintech Compendium. School of Management Fribourg, Switzerland.
4. Biagio Bossone and Massimo Cirasino, Op.Cit, p.7
5. "Clearing and Settlement Systems from Around the World: A Qualitative Analysis" (PDF). Michael Tompkins, Payments Canada Research Unit, and Ariel Olivares, Bank of Canada. www.payments.ca.
6. "Instant payments definition". www.ecb.europa.eu. European Central Bank. 2017.
7. To'lov tizimi ishtirokchilarining pulga doir o'zaro talablari va majburiyatlarini yig'ish, taqqoslash hamda hisobga o'tkazish jarayoni
8. "O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimining rivojlanish bosqichlari". O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. www.cbu.uz.
9. "Axborotlashtirish to'g'risida" — LEX.UZ – Ўзбекистон қонунчилиги.
10. "Bank tizimini takomillashtirish, pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" — LEX.UZ – Ўзбекистон қонунчилиги.
11. "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" — LEX.UZ – Ўзбекистон қонунчилиги.
12. Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. — LEX.UZ – Ўзбекистон қонунчилиги.
13. To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida. — LEX.UZ – Ўзбекистон қонунчилиги.

